



2025-yil «5» fevral

124-k-sonli

Toshkent shahar

“O‘zagrosug‘urta” AJ xarid komissiyasining yangi tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida

1. “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq “O‘zagrosug‘urta” AJ Boshqaruvining 2020-yil 16-martdagi 39-sonli buyrug‘i bilan Jamiyat tizimida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xaridlarini amalga oshirish yangi tizimi joriy etilganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

2. Jamiyat Boshqaruvida kadrlar tarkibidagi ayrim o‘zgarishlarni inobatga olib, “O‘zagrosug‘urta” AJ xarid komissiyasi 2025-yil 5-fevraldan quyidagi tarkibda tasdiqlansin:

A. Yusupov – Boshqaruv raisining o‘rinbosari, **Komissiya raisi;**

Sh. Boltayev – Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti bosh hisobchisi v.b, **Komissiya raisining o‘rinbosari;**

B. Sodiqov – Yuridik departament boshlig‘i, Komissiya a‘zosi;

A. Suyumov – Hududlarni rivojlantirish va sug‘urta agentlari tarmoqlari bilan ishlash departamenti direktori;

U. Taylakov – Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish departamenti direktori, Komissiya a‘zosi;

S. Saipov – Ishlar boshqarmasi boshlig‘i, Komissiya a‘zosi;

A. Jumayev – Andarrayting departamenti menejeri, Komissiya a‘zosi;

D. Shukurov – Ishlar boshqarmasi menejeri, **Komissiya kotibi.**

Komissiya tarkibidagi shaxslar lavozimiga ko‘ra kiritilganligi hamda boshqa ishga o‘tkazilgan yoki lavozimidan ozod etilgan taqdirda yangi tayinlangan yoki vakolati yuklatilgan shaxslar belgilanishi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Jamiyat Boshqaruvining 2024-yil 25-noyabrdagi 619-k-sonli buyrug‘i 2025-yil 5-fevraldan e‘tiboran o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o‘z zimmasida qoldiraman.

Asos: Boshqaruv raisining o‘rinbosari A. Yusupovning 2025-yil 5-yanvardagi IF-67-sonli bildirishnomasi.

Boshqaruv raisi



Sh.Rasulov